

Uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom

Uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlarini baholash bo‘yicha uslubiy nizom (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (keyingi o‘rinlarda – MHT-2008) konsepsiyalariga, shuningdek, Statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model- GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi mutaxassislari tomonidan uy-joy egalari tomonidan o‘z iste‘moli uchun ishlab chiqarilgan yashash xizmatlari (keyingi o‘rinlarda – o‘z uyida yashash xizmatlari)ni baholash bo‘yicha hisob-kitoblarini amalga oshirishda foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Ushbu Uslubiy nizomning maqsadi Milliy hisoblar tizimi ko‘rsatkichlari qamrovining to‘liqligini ta‘minlash uchun o‘z uyida yashash xizmatlari hajmini hisoblash algoritmini ishlab chiqish hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning xalqaro miqyosda qiyosiylikini ta‘minlash hisoblanadi.

Uslubiy nizom faqat uy xo‘jaliklariga tegishli bo‘lgan uy-joy fondiga (xususiyy uy-joy fondi) nisbatan qo‘llaniladi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta’riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma’lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi:

milliy hisoblar tizimi (MHT), mamlakatning iqtisodiy faoliyati natijalarini ifodalovchi hisoblar va jadvallarning muayyan to‘plami shaklida tuzilgan, o‘zaro bog‘liq statistika ko‘rsatkichlar tizimini o‘zida aks ettiradi;

ishlab chiqarish hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasi bo‘lib, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatini o‘zida aks ettiradi;

oraliq iste‘mol ishlab chiqarish jarayonida xarajatlar sifatida iste‘mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymatini o‘zida aks ettiradi (asosiy kapital iste‘moli sifatida aks ettiriladigan asosiy fondlar iste‘moli bunga kiritilmaydi);

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'raligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar korxonalar va tashkilotlar ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun to'laydigan barcha soliqlardan iborat, mahsulotlar uchun soliqlar bundan mustasno. Ular yer va tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan ishchi kuchi, ma'lum faoliyat turlari bilan shug'ullanish yoki operatsiyalarni amalga oshirish uchun beriladigan ruxsatnomalar va hokazolar uchun to'lanadi;

asosiy kapital iste'moli hisobot davrida moddiy va ma'naviy eskirish hamda tasodifiy zararlanish natijasida asosiy kapital qiymatining kamayishini ifodalaydi;

yalpi foyda qo'shilgan qiymatning yollanma ishchilarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar hamda ishlab chiqarishga va importga sof soliqni chegirib tashlangandan so'ng ishlab chiqaruvchilarda qoladigan qismini ifodalaydi.

Uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan nokorporativ korxonalarda ishlab chiqarish faoliyati natijasida olingan hamda yalpi foyda va ish haqiga ajratish imkoni bo'lmagan daromad – **yalpi aralash daromad**, deb ataladi.

2-bob. O'z uyida yashash xizmatlarini baholash bo'yicha xalqaro tavsiyalar

2. MHT tamoyillariga asosan o'z uyida yashash xizmatlari hajmi ishlab chiqarish chegarasiga kiritilib, uy xo'jaliklari iste'molining bir qismi hisoblanadi. MHT doirasida o'z uyida yashash xizmatlari hajmini ikki xil usulda, ya'ni renta ekvivalenti va foydalanuvchilarning xarajatlari usullarida hisoblash tavsiya qilinadi.

Renta ekvivalenti usuli o'z uyida yashash xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmini ijarachining shu kabi uy uchun to'laydigan taxminiy ijaralar narxi bo'yicha baholash yo'li bilan hisoblashni nazarda tutadi.

Ushbu usulni ijaraga beriladigan uy-joylar bozori yaxshi tashkil etilgan mamlakatlarda qo'llash mumkin. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK), Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tavsiyalariga ko'ra, renta ekvivalenti usuli mamlakatdagi mavjud uy-joy fondining ko'p qismi ijaraga berilsa, ijaraga berilgan uy-joylar mamlakatning hududlari bo'yicha teng taqsimlangan bo'lsa, shu bilan birga, davlat va xususiy uy-joylarda yashash uchun to'lanadigan ijaralar haqi o'rtasidagi farq katta bo'lmagan hollarda qo'llaniladi.

Foydalanuvchilarning xarajatlari usuli uy egalari o'z uylarini boshqa ijarachilarga ijaraga berishlari kerak bo'lganda, bozor baholaridagi ijarani belgilashda hisobga olinishi kerak bo'ladigan har bir xarajatlar elementlarini baholashni nazarda tutadi.

IHTT tomonidan foydalanuvchilarning xarajatlari usulini qo'llashning quyidagi mezonlari shakllantirilgan:

a) mamlakatda uy-joylarning 10 % dan kamrog'i ijaraga berilsa;

b) xususiy va davlat uylarida yashash uchun to'lanadigan ijara haqi o'rtasidagi farq 3 barobardan ko'proqni tashkil etsa;

d) ijaraga olingan uy-joylar mamlakatning barcha hududlari bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lsa.

Uy xo'jaliklari budjetini o'rganish bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda O'zbekistonda 2 % ga yaqin oilalar tijorat asosida (asosan jismoniy shaxslardan) ijaraga olingan uy-joylarda yashashlari kuzatilgan.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasida renta ekvivalenti usulidan foydalanish maqsadga muvofiq emas va o'z uyida yashash xizmatlarini baholashda foydalanuvchilarning xarajatlari usulidan foydalanish tavsiya etiladi.

3-bob. O'z uyida yashash xizmatlari hajmini foydalanuvchilar xarajatlari usulida baholash

3. Foydalanuvchilarning xarajatlari usuli uy egasi o'z uy-joyini boshqa yashovchilarga ijaraga berishga qaror qilgan, degan farazga asoslanadi va shu maqsadda u quyidagi xarajatlarni hisobga olgan holda, bozor narxlaridagi ijara haqini aniqlashi kerak bo'ladi:

- oraliq iste'mol ("*MHT-2008*" bo'yicha kodi – P2);
- ishlab chiqarishga boshqa soliqlar (D29);
- asosiy kapital iste'moli (K1);
- yalpi foyda (B2).

1-§. Oraliq iste'molni hisoblash

4. Uy egalarining oraliq iste'moliga uy-joylarni saqlash va uylarga xizmat ko'rsatish, turar joyni joriy ta'mirlash kabi joriy xarajatlar kiradi. Uy-joylarni joriy ta'mirlash mezonlari shundan iboratki, bunday ta'mirlash uylarning umrini uzaytirmaydi, uy joylarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish ishlari olib borilmaydi. Qoidaga ko'ra bu xarajatlar kosmetik ta'mirlash xarajatlari (ta'mirlash uchun material va xizmatlar) hamda joriy saqlash (ko'p qavatli uylarda texnik xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar)ni o'z ichiga oladi.

5. Joriy ta'mirlash xarajatlarini baholash uchun ma'lumotlar manbai bo'lib, qurilish tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarning qurilish materiallaridan foydalanish va bozor xizmatlari uchun to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan qurilish bo'yicha statistika hisoboti va kuzatuvlar ma'lumotlari xizmat qiladi.

6. Uy-joylarni joriy saqlash bo'yicha ma'lumotlar manbai bo'lib "Xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining faoliyati to'g'risidagi hisobot"i asosida shakllanadigan, uy-joy binolari umumiy maydonining 1kv. m. ga to'g'ri keladigan uy-joy egalari a'zolari tomonidan to'lanadigan, belgilangan miqdordagi majburiy badallar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat qiladi.

7. Uy-joy sug'urtasi bo'yicha sof sug'urta mukofoti ham oraliq iste'molning bir qismi hisoblanadi va bu o'zida haqiqatda olingan mukofotlar (hisoblanayotgan davrda olingan mukofot minus sug'urta zaxiralarining

o'zgarishi plyus sug'urta zaxiralarining investitsiyasidan olingan daromadlar) va to'lovlar o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Lekin, respublikamizda aholi tomonidan uy-joy sug'urtasi xizmatlaridan foydalanish darajasi juda past bo'lganligi sababli, ushbu uslubiy qo'llanmada uy-joy sug'urtasi bo'yicha sof mukofotni hisoblash ko'zda tutilmagan.

2-§. Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar

8. Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar sifatida soliqlarning ikki turi qabul qilinadi: mol-mulk solig'i va yer solig'i. Bu soliqlar fuqarolarga tegishli turar joy binolari hamda ushbu mulk joylashgan yerning qiymatiga qarab to'lanadi.

Ushbu soliq turlari bo'yicha ma'lumotlar manbai bo'lib, Soliq qo'mitasining ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotining daromad qismi ma'lumotlari xizmat qiladi.

Soliq solish obyekti sifatida nafaqat turar joylar, balki garajlar va boshqa qurilishlar kabi yordamchi binolar ham hisobga olinishi kerak. Umume'tirof etilgan jahon tajribasiga ko'ra, turar joy bo'lmagan binolar uchun to'langan soliqlarni chiqarib tashlash maqsadida ishlab chiqarishga boshqa soliqlarni hisoblashda jismoniy shaxslar tomonidan to'langan mol-mulk solig'i va yer solig'i umumiy miqdorining 90 % i hisobga olinadi.

3-§. Asosiy kapital iste'molini hisoblash

9. Xalqaro standartlarda asosiy kapitalning iste'molini uzluksiz inventarizatsiya usuli yordamida hisoblash tavsiya qilinadi. Ushbu usuldan foydalanish uchun uy-joy fondi bo'yicha uzoq yillik dinamik qator, shu bilan birga, uy-joylarni yaroqlilik muddati, ularning sifati kabi boshqa ko'rsatkichlar ham kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha bunday ma'lumotlarning yo'qligi sababli asosiy kapitalning iste'moli BMT YEIK, Yevrostat va IHTT tomonidan tavsiya etilgan muqobil usulda quyida keltirilgan formula asosida hisoblanadi:

$$CFC = \frac{D}{L} * W ,$$

bu yerda,

CFC – asosiy kapital iste'moli;

D – kamayib boruvchi qoldiq koeffitsiyenti;

L – uy-joy binolarining o'rtacha xizmat qilish muddati;

W – xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati.

IHTT tavsiyalari va xorijiy tajribaga ko'ra, hisob-kitoblarda kamayib boruvchi qoldiq koeffitsiyenti (D) 1,6 ga teng, deb qabul qilinadi.

Uy-joylarning o'rtacha xizmat qilish muddati sifatida ushbu uyning qurilgan yildan buzilgunga qadar xizmat qilishi kerak bo'lgan yillar soni hisobga olinadi. Odatda, Yevropa mamlakatlarining statistika amaliyotida uy-joylarning xizmat qilish muddatlari 50 yildan 90 yilgacha, deb olinadi. Shundan kelib

chiqib, xalqaro amaliyotda uy-joylarning o'rtacha xizmat qilish muddati 70 yil, deb qabul qilingan.

Turar-joy binolari uchun kamayib boruvchi qoldiq koeffitsiyenti (D) 1,6 ga teng va turar-joy binolarining o'rtacha xizmat qilish muddati 70 yil bo'lsa, amortizatsiya normasi 0,023 ($1,6 / 70$) yoki 2,3 % ni tashkil qiladi, shu orqali xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini 0,023 ga ko'paytirish bilan asosiy kapitalning iste'molini hisoblash mumkin.

4-§. Yalpi foydani hisoblash

10. O'z uyida yashash xizmatlaridan olingan yalpi foyda, bu mulk egasining moliyaviy aktivlarga kiritgan pulining kutilgan foizidan kam bo'lmagan miqdorda daromad olishi mumkin bo'lgan shartli foydani anglatadi.

Asosiy kapital iste'moliga qo'shiladigan yalpi foydani baholash xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini mos turar-joylar bo'yicha yillik foyda normasiga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Foyda darajasi ko'rsatkichining iqtisodiy ma'nosi shundan iboratki, sotib olinadigan kapital aktiv turar-joydan kutiladigan daromadni aks ettiradi.

IHTTning foydalanuvchilar xarajatlari usulidan foydalangan holda o'z uyida yashash xizmatlarini hisoblash bo'yicha tavsiyalaridan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining statistika amaliyotiga 2,5 % lik belgilangan foyda normasi stavkasi qo'llaniladi. Bu shuni anglatadiki, yalpi foyda xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati va foyda normasi (0,025)ning ko'paytmasi orqali hisoblanadi.

$$GOS = W * 0,025 + CFC ,$$

bu yerda,

GOS – yalpi foyda;

W – xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati;

CFC – asosiy kapital iste'moli.

O'z uyida yashash xizmatlari ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmi 1- ilovada keltirilgan

4-bob. Xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini hisoblash

11. Uzluksiz inventarizatsiya usuli – uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini baholashda standart usul hisoblanadi. Ushbu usulni qo'llash uchun asosiy kapital iste'molini hisoblashdagi kabi uy-joy bozori ma'lumotlari, uy-joylarning xizmat qilish muddati, ularning sifati va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha uzoq yillik dinamik qatorlar kerak bo'ladi.

Uzluksiz inventarizatsiya usulini qo'llash imkonining mavjud emasligi sababli, O'zbekiston Respublikasida BMT YEIK, Yevrostat va IHTT

tavsiyalarida nazarda tutilgan uy-joy fondining bozor baholaridagi qiymatini hisoblashning muqobil usulidan foydalaniladi.

Xususiyy uy-joy fondining bozor baholaridagi qiymatini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$W = \left(1 - \frac{A}{L}\right) * S * P_{new},$$

bu yerda,

W – xususiyy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati;

A – uy-joylarning o‘rtacha yoshi;

L – uy-joy binolarining o‘rtacha xizmat qilish muddati;

S – o‘z egalari yashaydigan uy-joyning umumiy maydoni;

P_{new} – hisobot yilida foydalanishga topshirilgan 1 kv. m yangi uy-joylarning o‘rtacha yillik bozor bahosi.

Xususiyy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini hisoblash quyidagi ma’lumotlar manbalari asosida amalga oshiriladi:

uy-joylarning umumiy maydoni Kadastr agentligining uy-joy fondi bo‘yicha idoraviy statistika hisoboti asosida shakllantiriladi;

xususiyy uy-joylarning umumiy maydoni uy xo‘jaliklari kuzatuv ma’lumotlari asosida o‘z uylarida yashovchi oilalar ulushi bo‘yicha baholanadi;

uy-joy binolarining o‘rtacha xizmat qilish muddati BMT YEIK, Yevrostat va IHTT tavsiyalariga asosan 70 yilga tenglashtirib olingan;

uy-joy binolarining o‘rtacha yoshi Kadastr agentligining uy-joy fondining qurilgan yillari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida hisoblanadi;

hisobot yilida foydalanishga topshirilgan yangi uy-joylarning bir kvadrat metrini o‘rtacha yillik bozor bahosi, qurilish statistikasi ma’lumotlariga asosan yangi foydalanishga topshirilgan uy-joylar qiymatini ularning maydoniga nisbati orqali aniqlanadi.

Xususiyy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini hisoblash algoritmi 2-ilovada keltirilgan.

5-bob. O‘z uyida yashash xizmatlari hajmini doimiy narxlarda hisoblash

12. O‘z uyida yashash xizmatlari hajmini doimiy narxlarda baholashda xususiyy uy-joy fondi maydonining o‘zgarishi indeksidan foydalaniladi va bu quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$I_h = \frac{H_t}{H_{t-1}} * 100 \%,$$

bu yerda,

I_h – xususiyy uy-joy fondi maydonining fizik hajm indeksi;

H_t – t davr uchun xususiyy uy-joy fondining umumiy maydoni (ming kv. m);

H_{t-1} – $t - 1$ davr uchun xususiyy uy-joy fondining umumiy maydoni (ming kv. m);

Doimiy baholarda o'z uyida yashash xizmatlari YAQQ hajmi bazis yildagi xizmatlar YAQQ hajmini xususiy uy-joy fondi maydonining fizik hajm indeksiga ekstrapolyatsiya qilish yo'li bilan aniqlanadi.

$$GVA_{const} = GVA_{t-1} * I_h,$$

bu yerda,

GVA_{const} – doimiy narxlarda hisoblangan o'z uyida yashash xizmatlari bo'yicha YAQQ;

GVA_{t-1} – bazis davrdagi joriy narxlarda hisoblangan o'z uyida yashash xizmatlari bo'yicha YAQQ;

I_h – xususiy uy-joy fondi maydonining fizik hajm indeksi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

13. O'z uyida yashash xizmatlari hajmini foydalanuvchilarning xarajatlari usulidan foydalanib hisoblash YAIMni MHT–2008 talablariga muvofiq to'liq baholash hamda xalqaro taqqoslashlar dasturida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mos ma'lumotlari bilan taqqoslash imkonini beradi.

14. Birlamchi ma'lumotlar shakllanishi bilan bog'liq uslubiyatning takomillashishi va axborot resurslarining kengayishi, ushbu uslubiy nizomni kelgusida yanada takomillashtirish imkonini beradi.

15. Rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo'llash maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

16. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.
2. «Оценка услуг, занимаемых владельцами жилищ: метод пользовательских расходов», ЕЭК ООН, Евростат, ОЭСР, 2008 г.
3. «Методологические подходы к оценке жилищных услуг, производимых и потребляемых владельцами жилья, в системе национальных счетов», Росстат, Москва, 2014 г.
4. Davlat statistika qo'mitasining 2016- yil 29- iyundagi 9-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulida hisoblash bo'yicha Uslubiy nizom”.

O'z uyida yashash xizmatlari ko'rsatkichlarini baholash
(shartli ma'lumotlar)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
Oraliq iste'mol			
1	Jismoniy shaxslarning uy-joylarini joriy ta'mirlashi	mln. so'm	1 656 110
2	Ko'p qavatli uylarda yashovchilar tomonidan uylarni saqlash uchun to'lanadigan to'lovlar	mln. so'm	322 956,0
3	Oraliq iste'mol – jami (1+2)	mln. so'm	1 979 066,1
Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar			
4	Jismoniy shaxslar tomonidan uy-joy va kvartiralar uchun to'lanadigan mulk solig'i	mln. so'm	605 307,7
5	Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i (yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmagan holdagi dehqon xo'jaliklaridan tushadigan yer solig'idan tashqari)	mln. so'm	596 856,8
6	Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar – jami (4+5)	mln. so'm	1 202 164,5
Asosiy kapital iste'moli			
7	Xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati	mln.so'm	397 387 277,7
8	Uy-joy binolarining o'rtacha xizmat qilish muddati	yil	70
9	Amortizatsiya me'yori (1,6 / 70 * 100 %)	%	2,3
10	Asosiy kapital iste'moli (7 * 9 / 100 %)	mln. so'm	9 083 137,8
Yalpi foyda			
11	Belgilangan shartli foyda me'yori	%	2,5
12	Yalpi foyda (7 * 11) / 100 %	mln. so'm	9 934 681,9
Yalpi qo'shilgan qiymat			
13	Ishlab chiqarish (3 + 6 + 10 + 12)	mln.so'm	22 199 050,3
14	Yalpi qo'shilgan qiymat (13 - 3)	mln.so'm	20 219 984,2

Xususiy uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymatini baholash
(shartli ma'lumotlar)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	Xususiy uy-joy fondining umumiy maydoni	kv. m	517 888 984,6
2	O'z uylarida yashovchi oilalar ulushi	%	98,1
3	O'z egalari yashaydigan uy-joylarning umumiy maydoni ($1 * 2 / 100 \%$)	kv. m	507 971 736,7
4	Uy-joy binolarining o'rtacha xizmat qilish muddati (L)	yil	70,0
5	Uy-joylarning o'rtacha yoshi (A)	yil	30,3
6	Hisobot yilida yangi uy-joy binolarini foydalanishga topshirish	kv. m	13 398 622,0
7	Hisobot yilida yangi uy-joy binolarini foydalanishga topshirish	mln. so'm	18 190 648,4
8	O'z egalari yashaydigan uy-joy fondining joriy bozor bahosidagi qiymati ($((1 - (5 / 4)) * 3 * 7 / 6)$)	mln. so'm	397 387 277,7